

## О‘ЗБЕК TILSHUNOSLIGI TARIXI VA UNING О‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ИСТОРИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВИЯ И ЕЕ ОСОБЕННОСТИ.  
HISTORY OF UZBEK LINGUISTICS AND ITS SPECIFIC  
CHARACTERISTICS

*Nuraliyeva Madina*

*Shahrisabz State Pedagogical Institute*

[nuraliyevamadina626@gmail.com](mailto:nuraliyevamadina626@gmail.com)

**Annotasiya:** Ushbu maqolada O‘zbek ona tilisi tarixiy rivojlanish davrlari va bu rivojlanishga buyuk allomalimizning qo‘shgan hissalarini haqida va o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlariga to‘xtalamiz. Ona tili – millatning ruhi ekanligi, ona tili bo‘lmish o‘zbek tilining tarixi, rivojlanish jarayonlari va uni o‘qitishning afzalliklari yoritib berilgan.

**Аннотация:** В этой статье мы расскажем об исторических периодах развития узбекского родного языка и вкладе нашего великого ученого в это развитие, а также остановимся на особенностях узбекского языка. Освещены история, процессы развития и преимущества преподавания узбекского языка как родного, его духа.

**Abstract:** In this article, we will dwell on the periods of historical development of the Uzbek native language and the contributions of our great allomala to this development, and on the peculiarities of the Uzbek language. The fact that the mother tongue is the spirit of the nation, the history of the native language of the Uzbek language, the processes of development and the benefits of its teaching are highlighted.

**Kalit so‘zlar:** Innovatsion, tilshunos olim, o‘zbek adabiy tili, Devonu, turkiy tillar, Chig‘atoy, qadimgi turk tili.

**Ключевые слова:** Новатор, лингвист, узбекский литературный язык, тюркские языки, Чигатай, древнетюркский язык.

**Keywords:** innovative, linguistic scientist, Uzbek literary language, Turkic languages, Chigatoy, old Turkish language.

### KIRISH

O‘zbek (qadimgi turkiy) tilini o‘rganish Mahmud Qoshg‘ariydan boshlanadi. Bu alloma eng birinchi turkiy tilshunosi, adabiyotshunosi, elshunosi sifatida nom chiqargan olimdir. U o‘zining “Devonu lug‘otit-turk” asarida turkiy tilda mavjud bo‘lgan so‘zlarni ma’lum turkumlarga (ot, fe‘l, yordamchi so‘zlarga) ajratgan. Buyuk vatandoshimiz Abudqosim Mahmud az-Zamahshariy ham o‘zining “Muqaddimat ul-

adab” asarida otlar, fe’llar, bog’lovchilar haqida ma’lumot bergan (Bu asarini keyinchalik o’zi chig’atoy, ya’ni o’zbek tiliga tarjima qilgan)<sup>1</sup>.

### ASOSIY QISM

O’zbek adabiy tili o’tmishi quyidagi davrlarni o’z ichiga oladi: Miloddan avvalgi davrlardan to X yuzyillikgacha bo’lgan davr. Bu davrdagi til fanda qadimgi turk tili deb yuritiladi. Qadimgi xalq og’zaki ijodi misollari, O’rxun-Enasoy yodgorliklari (VI-VII asrlar) shu tilda yaratilgan.

XI—XIV yuzyilliklarda amalda bo’lgan til eski turkiy til deb ataladi. Mahmud Qoshg’ariyning „Devonu-lug’atit-turk“ („Turk so’zliklari to’plamii“), Yusuf Xos Hojibning „Qutadg’u bilig“ („Qutga etuvchi bilim“), Ahmad Yugnakiyning „Hibatul haqoyiq“ („Haqiqatlar armug’oni“), Xorazmiyning „Muhabbatnoma“, Rabg’uziyning „Qissasi Rabg’uziy“ asarlari shu tilda yaratilgan.

XV yuzyillikdan XIX yuzyillikning ikkinchi yarmigacha qo’llangan til eski o’zbek adabiy tili deb otlangan. Atoyi, Sakkokiy, Sayfi Saroyi, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy va boshqa ko’plab ijod etganlarning asarlari shu tilda yaratilgan.

O’zbek xoni Muhammad Shayboniy (1451-1501) o’zbek tilida g’azal, ruboiylar ham bitgan. Uning ana shunaqa g’azal, ruboiylaridan ayrimlari va „Baxrul xudo“ o’li dostoni, o’g’li Muhammad Temur sultonga atab yozgan o’gitlardan tuzulgan kitobi (birdan-bir nusxasi Turkiyada saqlanadi) bizgacha yetib kelgan.[1]

XIX yuzyillikning ikkinchi yarmidan hozirgi davrgacha ishlatilib kelinayotgan til hozirgi o’zbek adabiy tili deb ataladi. „Turkiston viloyati gazetii“ chiqqa boshlagan vaqtdan (1870-yildan) to hozirgi kungacha yaratilgan barcha asarlar hozirgi o’zbek adabiy tilining ishlariga kiradi.

O’zbek tili XI yuzyillikdan boshlab mustaqil til kabi ko’rinishni boshladi va XIII yuzyillikda eski o’zbek adabiy tili shakllanib bo’ldi.

Eski o’zbek tilining o’sishi va saqlanishi buyuk Alisher Navoiyning oti bilan bog’liqdir. Navoiy eski o’zbek tilidan bilinmagan yetukligidan qo’llanib qaytarilmas asarlar yaratadi, bu tilni ilmiy tomondan chuqur o’rganadi va „Muhokamat-ul-lug’atayn“ o’li yirik ilmiy asar ham yozadi va unda o’zbek tilining boshqa tillardan kentik emasligini ishonarli ko’rsatishlar bilan isbotlab beradi.

O’zbek tili fan sifatida maktablarda XX asrning boshlarida o’qitila boshlandi. Ana shu davrdan boshlab tilimizni tizimli (sistemali) tarzda o’rganish boshlangan. O’zbek tilshunosligi fanining poydevoriga dastlabki g’ishtlarni qo’yishda Abdurauf Fitrat, Elbek, A. Zoiriy, Muhammadamin Muhammadkarimov (Faxriddinov) (1894 – 1941), Munavvarqori Abdurashidxonov (1873 – 1931), Ye. D. Polivanov (1891 – 1938), Qayum Ramazonov (1897 – 1942), A. K. Borovkov (1904 – 1962), F. Kamolov (1907

<sup>1</sup> Ona tili va adabiyot fanini o’qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar o’quv moduli. – Toshkent: 2017. – 110 b

– 1966), X. Komilova (1912 – 1961), Ayub G‘ulomov (1914 – 1982), F. Abdullayev, H. G‘oziyev, G‘. Yusupov, H. Ma‘rufov, U. Tursunov, T. Ibrohimov va boshqa olimlarning xizmatlari katta bo‘ldi. Hozirgi davrda tilimizni tadqiq qilishda faol ishtirok etayotgan M. Asqarova, Sh. Shoabdurahmonova, A. Hojiyev, A. Rustamov, N. Mahmudov, A. Nurmonov va boshqa o‘nlab yirik tilshunos olimlarni hurmat bilan tilga olishimiz mumkin. 1934-yili Toshkentda Til va adabiyot instituti ochilgan. Bu institutda olimlar o‘zbek tilini har tomonlama tadqiq qilishmoqda [4,5].

### XULOSA

Til – millatning ma'naviy boyligidir. Til nafaqat muammola vositasi – balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir. Turli xalqlarning tillariga xurmat esa o‘z navbatida o‘zaro tushunishni, muloqotlarga imkoniyat yaratadi. Tillarni saqlanib qolishi uchun esa bu tillarni qo‘llab-quvvatlash zarurdir. Aynan til tufayli insoniyat u yoki bu xalqqa mansubligidan faxrlanib yashaydi. Barcha tillarni tan olish va xurmat qilish tinchlikning birdan bir kafolatidir. Shu sababli ham har bir xalq o‘z tili saqlanib qolishi uchun harakat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘qituvchi kitobi. Yangi nashr (5-sinf uchun). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot ijodiy uyi. 2020. – 243 b.
2. Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar o‘quv moduli. – Toshkent: 2017. – 110 b.
3. Mahmudov N., Sobirov A., Sattorov Sh., Toshmirzayeva Sh. Ona tili. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari uchun darslik – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 190 b.
4. Yo‘ldoshev J.G‘. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 132 b.
5. Ishmuhamedov R.M. Mirsolieva. “O‘quv jarayonida innovatsion ta‘lim texnologiyalari. Toshkent - 2014. “Fan va texnologiya” nashriyoti
6. Juravlev V.I. Pedagogika. Uchebnoe posobie. Rossiya: Izd-vo. Pedagogicheskoe obshestvo. 1998. – 246.